

**NUTQIDA KAMCHILIGI BO'LGAN O'QUVCHILARDA BILISH JARAYONLARI
RIVOJLANISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Latipova Rushana Raxim qizi

*Buxoro Davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi
magistranti*

Ramazonov Jahongir Djalolovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilarda bilish jarayonlari rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari, sog'lom va nuqsonga ega bo'lgan bolalarda bilish jarayonlarining o'zaro farqi, kognitiv protsesslardagi muammoning o'quvchilar intellektual-psixik faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri haqida fikir yuritilgan.

Kalit so'zlar: bilish jarayonlari, nutq kamchiligi, lopotad, NTR (nutqning to'liq rivojlanmaganligi), xotira, diqqat, tafakkur, idrok.

Аннотация: В этой статье излагается о своеобразии развития познавательного процесса учеников с речевым недостатком, различие познавательного процесса между здоровыми детьми и детьми с нарушением речи, а так же воздействие на интеллектуально-психическую функцию учеников, проблемы когнитивного процесса.

Ключевые слова: познавательный процесс, речевой недостаток, логопад, ОНР (Общее недоразвитие речи), память, внимание, мышление, восприятие.

Annotation: In this article, the peculiarities of the development of cognitive processes in pupils with speech disabilities, the mutual difference between cognitive processes in healthy and disabled children, the impact of problems in cognitive processes on the intellectual and mental activity of pupils the effect is described.

Key words: cognitive process, speech disabilities, general undevelopment of speech(GUS), memory, attention, thought, intelligence.

O'z mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan Respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash — dolzarb va ustuvor vazifalardan biri. Hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning rivoji yoshlarning ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy o'zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarning teran tafakkur etishni taqozo etadi.

Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri nutq vositasidir. Yetarlicha shakllanmagan nutq vositasida sog'lom ijtimoiy munosabatlari o'ratish mushkul. Nutq bilan bog'liq muammolar psixologiya fanida chuqur o'rganilgan. Unga tayanib insonning ruhiy taraqqiyotini, uning atrofdagilar bilan bo'ladigan aloqasini, individning shaxs bo'lib shakllanishini nutqsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki nutq ham insonning o'ziga xos ehtiyojlaridan biri. Insonning go'daklik va o'smirlilik davrlarida muloqot yetakchi, ya'ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi.

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi.

Muloqot psixologiyasi sohasidagi bilimlarni yoshlar, ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarga yetkazish ularning psixologik savodxonligini oshiradi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga, bo'lg'usi pedagogik faoliyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Kognitiv jarayonlar (sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur,) inson faoliyatining, jumladan nutqning ajralmas qismi bo'lib, u uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni beradi. Ular sizga maqsadlarni belgilash, rejalar tuzish va bo'lajak faoliyatning mazmunini aniqlash, ushbu faoliyatning borishini, harakatlaringizni ongingizda o'ylashga, ularning natijalarini oldindan bilishga va boshqarishga imkon beradi. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan o'quvchilarda bilish jarayonlari rivojlanishi o'ziga xos bo'lib, bu ulardagi nuqsonning turi va darajasiga bog'liq bo'ladi. Ayrim nutq kamchiliklarida bilish jarayonlari sog'lom o'quvchilarnikidan farq qilmaydi, ba'zilarida chuqur buzilishlar va orqada qolishlar kuzatiladi.

Bugungi kunda nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilarga zaruriy pedagogik va psixokorreksion yordam ko'rsatish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida logopedik shahobchalar tashkil etigan bo'lib, ularning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 26-oktyabrda 2722-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Umumiy o'rta ta'lim muassasasi qoshidagi logopediya shahobchasi" to'g'risidagi nizomga muvofiq yuritiladi.

R.E.Levinaning fikricha, nutq nuqsoni o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. U doim individning psixikasi va shaxsiyatini qamrab oladi. Aksariyat mualliflar nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalardagi aniq psixologik xususiyatlarni turli darajalarda qayd etadilar (X.Laguzen, I.A.Sikorskiy, G.D. Netkachev, I.I.Tartakovskiy, E.Freshels, F.G.Shtokker, YU.A.Florenskaya, M.E.Xvatsev). So'nggi yillarda logopedik ishning psixoterapevtik yo'nalganligini asoslash maqsadida nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari o'rganilmoqda (S. Slyapidevskiy, S.I. Pavlova, V.I. Seliverstov, V.M. Shklovskiy, Yu.B. Nekrasova, G. I. Angushev, L. Z. Andronova, E. M. Quliev va boshqalar)

Umuman olganda, nutqi buzilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi normadagi xotira rivojlanishidan unchalik farq qilmaydi. Biroq, bir nechta o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Murakkab tasvirlarni tanib olishda qiyinchiliklar xarakterlidir (masalan, dizatrik bolalar geometrik shakllarni yaxshi tanimaydilar). Xotiraning bu xususiyati his qilish xususiyatlari bilan bog'liq; nutq nuqsoni qanchalik yaqqol namoyon bo'lsa eshitilgan narsani eslab qolish xususiyati me'yordan chunchalik past bo'lad, bola ijro etish xatolarini sezmaydi va ularni tuzatmaydi (xotiraning bu xususiyati diqqat va nazorat qilish xususiyatlari bilan bog'liq); nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning eng xarakterli muammosi ular nutq ko'rsatmasini unutishidir. Shuning uchun, agar bola o'z ishida tayanishi mumkin bo'lgan darslar uchun vizual diagrammalardan foydalanilsa yaxshi bo'ladi.

R. M. Frumkina J. Miller ishiga tayanib shunday deydi: doimiy barcha topshiriqlar uchun muqobil bo'lgan eslab qolish birligi yo'q. bunday birlik eslab qolinishi kerak bo'lgan narsalarni tahlil qilish va tizimlashtirish jarayonida insonning faol ishtiroki natijasida yuzaga keladi.

Shunday qilib, nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar xotirasi uchun quyidagilar xarakterlidir:

- Eshituv xotirasi ko'rsatkiching pastligi
- Ko'ruv xotirasi ko'rsatkiching pastligi
- Produktiv esda saqlash darajasining pastligi
- Mantiqiy xotiraning qisman saqlanganligi

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning diqqati tarqoqligi, ixtiyoriylikning sustligi va boshqarishning qiyinligi bilan xarakterlidir. Ya'ni bunday bolalar o'z diqqatlarini ixtiyoriy tarzda boshqarishga qiynaladilar. Qoidaga ko'ra diqqatning barqarorligi taqdim etilayotgan ma'lumotning modalligiga bog'liq. Agar ko'rsatma ko'ruv analizatoriga asoslanishni taqozo etsa, diqqat ancha mustahkam bo'ladi, ammo vazifa og'zaki topshiriqlar

shaklida berilsa, diqqat ikkala ta'sir etuvchiga taqsimlanib, topshiriq ko'plab xatoliklar bilan bajarilishi mumkin.

T.S.Ovchinnikova (1996) nutqi buzilgan maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatni o'rgangan. U nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni sog'lom bolalardan ajratib turadigan xususiyatlarni aniqlay oldi va uzoq davom etgan ruhiy zo'riqish paytida ularning faoliyati samaradorligini tavsiflay oldi. Masalan, korrektur sinov metodikasi orqali sog'lom va nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar tekshirilganda, olingan natijalar 1% ga farq qilgan. Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar sog'lom tengdoshlariga nisbatan 1,28% kam belgilarni ko'rib chiqqanlar. Shu bilan birga logopad bolalarda ko'rib chiqilgan

Nutqi to'liq rivojlanmagan (NTR) bolalarda diqqatning yetishmasligi harakatlar nazoratining shakllanmaganligi, ayniqsa topshiriq shartini analiz qilish qiyinligi bilan namoyon bo'ladi.

Umuman olganda nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar diqqati uchun quyidagilar xosdir:

- Ixtiyoriy diqqat ko'rsatkichining pastligi
- Harakatlarni rejalashtirishdagi qiyinchiliklarning mavjudligi
- Berilgan toshiriq shartini analiz qilish, uni bajarish usullari va vositalarini topishdagi qiyinchiliklar
- Faoliyat nazoratining shakllanmaganligi
- Amaliy faoliyat va og'zaki topshiriqlar o'rtasida diqqat taqsimlash qiyinchiligi
- Ish jarayonida diqqatning tez-tez ko'chuvchanligi
- Diqqatning beqarorligi.

Uzoq vaqt davomida noverbal tafakkur logopad bolalarda kompensatsion usulda - og'zaki fikrlashning zaif rivojlanishiga javob sifatida rivojlangan degan fikr mavjud edi. 1982 yilda O.N. Usanova ushbu taxmini sinab ko'rish uchun tajriba uyushtirdi. Tajriba natijalari juda kutilmagan edi. Birinchi guruh bolalari (nutqi to'liq rivojlanmagan NTR bolalar sonining taxminan 9%) noverbal intellektga ega ekanligi aniqlandi, uning rivojlanishi nutqning kam rivojlanganligi bilan bog'liq emas. Qoida tariqasida, noverbal tafakkurning yuqori darajasi bunday bolalarga jamiyatda yaxshiroq moslashishga va o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Ikkinchi guruh bolalari (NTR bolalarning taxminan 27%i) noverbal tafakkurning o'rtacha darajasini namoyish etdi. Shu bilan bir qatorda ularning verbal intellekt darajasi pastroq bo'lib, natijada bu guruh bolalari sog'lom o'quvchilarga qaraganda ko'proq psixologik muammolarga duch kelishadi.

Uchinchi guruh bolalari (Ravenna testiga ko'ra NTR bolalarning 63%) oddiy bolalarga qaraganda pastroq tafakkur darajasini namoyish etdi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda tafakkurning rivojlanishida o'zlashtirishdagi kamchiliklar, aqliy operatsiyalarni bajarishdagi qiyinchiliklar, shuningdek, aqliy faoliyatni tashkil etishda o'z-o'zini nazorat qilishdagi qiyinchiliklar kuztiladi. Tegishli tayyorgaliksiz logopad bolalar voqea hodisalarni tahlil, analiz-sintez, tasniflash kabi tafakkur operatsiyalarni bajara olmaydilar, analogik xulosalarni chiqara olmaydilar.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning tafakkuri uchun quyidagilar xos:

- Ko'rgazma - obrazli va so'z - mantiq tafakkur darajasining pastligi
- Klassifikatsiyalash, abstraktsiya, analiz qilish kabi tafakkurning murakkab operatsiyalarini bajara olmaslik
- Sabab-natija munosabatlarining namoyon bo'lishini anglashdagi qiyinchiliklar.

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan o'quvchilarning deyarli barchasida fonematik idrokning sustligi kuzatiladi. Bola fonemalarni farqlay olmaydi, ayniqsa, eshitilishi o'zaro yaqin bo'lganlarini differentsatsiya qila olmaydi. O'zining talaffuzidagi kamchiliklarni sezmaydi. Bunday bolalarning ko'ruv idrokida ham oqsashlar mavjud. Predmetlarning obrazlarini butunligicha shakllantira olmaslik kuzatiladi. Masalan, ular bilan "shovqinda tanib olish" mashqi sinov tariqasiga bajarilganda, predmetni tanib olish uchun bolalarga ko'p vaqt kerak bo'ladi va topshiriqni bajargandagi xatoliklarni ko'rish mumkin.

Perseptiv harakatlarga doir topshiriqlarni bajarganda bunday bolalar mo'ljal olishning elementar shakllaridan foydalanadilar, ko'ruv-taqqoslash funksiyalaridan foydalanilmaydi. Alaliya nuqsoniga ega bo'lgan bolalar Bender geshtalt testini bajarishdagi xatoliklari bilan ajralib turadilar, optik-fazoviy gnozis rivojlanish darajasining o'ta pastligi bunday bolalar uchun xarakterli bo'lib, shuningdek harflarni farqlashda qiynaladilar. Umuman nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar uchun fazoviy tasavvurlar rivojlanishining orqada qolishi xos bo'lib, ular o'ng va chap tomonlarini farqlashda, tana qismlarini orientatsiya qilishda qiynalishadi hamda obraz butunligini idrok qilishda og'ishish kuzatiladi.

Shunday qilib nutq nuqsoniga ega bo'lgan o'quvchilarning idroki quyidagi o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi:

- Fonematik idrok qilish darajasining pastligi
- Ko'ruv idroki darajasining pastligi
- Harflar gnozisining past darajada bo'lishi

- Fazoni orientatsiya qilishdagi buzilishlar

Xulosa qilib shularni aytish mumkinki, nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilar bilish jarayonlari sog'lom tengdoshlarinikidan ancha farqli bo'lib, ular quyidagi o'ziga xosliklarga ega bo'ladi:

□ Nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilarda motivatsion doira yetarlicha shakllanmaganligi bilan ajralib turadi;

- Diqqat konsentratsiyasi va barqarorligining yetishmasligi kuzatiladi;
- Motorikaning yaxshi rivojlanmaganligi namoyon bo'ladi;
- O'qishga bo'lgan qiziqish darajasining pastligi kuzatiladi;
- Mantiqiy tafakkur qilish imkoniyatlarining yetarli emasligi;
- Sanoq operatsiyalarini bajarishdagi qiyinchiliklar

kabi xususiyatlar bunday o'quvchilarning bilish jarayonlari uchun xos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Калягин В.А. Логопсихология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений/ В.А.Калягин, Т.С. Овчинникова.- М.: Академия, 2006.- 320с. [Электронный ресурс]. URL: <http://pedlib.ru>

2. Логопсихология/Авт.-сост. С.В. Лауткина. – Витебск: Изд-во УО «ВГУ им. П.М. Машерова», 2007. – 150 с.

3. Maxsus psixologiya: o'quv qo'llanma / L.R.

Mo'minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova; O'zbekiston Respublika'si Oliyva o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. — 272 b.

4. Umumiy psixologiya: P.I. Ivanov, M.E. Zufarova; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.- T.: O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti, 2008. 480 b.

5. Рамазонов, Ж. Д. Талабалар таълим жараёнида ўзини ўзи идора қилишининг ижтимоий-психологик механизмлари. Образование и наука в XXI веке. Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск, (14), 794-800.

6. Jalolovich, R. J. (2021). REFLEXIVE MECHANISM-AS THE MAIN FORM OF CONTROLLING STUDENTS'PSYCHOLOGICAL CONDITIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 2(3), 1-3.

7. Рамазонов, Д. Ж. (2022). Моделирование механизмов амоуправления студентов. Science and Education, 3(4), 1003-1011.